KOREYS VA ÖZBEK TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASINING IFODALANIŞI

Toshkent davlat şarqşunoslik universiteti
Şarq tillari va adabiyoti instituti Koreyaşunoslik oliy maktabi
2-kurs talabasi **Ahmadjonova Jasmina Azizjon qizi**
Tel.: 99 259 80 07

Annotatsiya: Uşbu maqolada koreys va özbek tillarida hurmat kategoriyasining ifodalaniş xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Şuningdek, koreys tilida murakkab grammatik tizimga ega bölgan hurmat kategoriyasining özbek tilida namoyon böliş usullari, ikki tildagi öxşaş va farqli jihatlari, uning tarjima jarayonidagi örni hamda muloqot obyektiga munosabati örganiladi. Tadqiqot davomida hurmat kategoriyasining grammatik, leksik va pragmatik vositalar orqali ifodalanish xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: koreys tili, özbek tili, hurmat kategoriyasi, nutq etiketi, murojaat shakllari, grammatik vositalar, leksik vositalar, pragmatik xususiyatlar, qiyosiy tahlil.

Hurmat kategoriyasi – bu tilda sözlovçining suhbatdoşga yoki boşqa şaxsga nisbatan hurmat, ehtirom va odob munosabatini ifodalovçi til vositalari tizimidir. Koreys tilida hurmat kategoriyasi alohida muhim örin tutadi. Çunki hurmat ifodasi nafaqat tilning grammatik tizimida, balki koreys xalqining milliy-madaniy qadriyatlari va kundalik muloqotida ham muhim ahamiyatga ega. Koreys tilida hurmat kategoriyasi grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. Özbek tilida ham hurmat kategoriyasi muhim lingvistik va ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. U kishilik olmoshlari, fe'l şakllari, hurmat ma'nosida qöllanadigan köplik şakli, murojaat birliklari hamda boshqa leksik va pragmatik vositalar orqali ifodalanadi. Şhu sababli ushbu maqolada koreys va özbek tillarida hurmat kategoriyasining ifodalaniş xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Koreys tilida hurmatni ifodalovçi sözlar bir qancha bölib ular nafaqat hurmat sözlar balki hurmatni ifodalovçi qöşimçalardir ham. Hurmatni ifodalovçi alohida sözlarga keladigan bölsak, ular quyidagilar:

Jadval–1[1]

Oddiy şakli	**Ma'nosi**	**Hurmat şakli**
죽다	vafot etmoq	돌아가시다
가다	bormoq	가시다
이다	bölmoq	이시다
읽다	öqimoq	읽으시다
듣다	eşitmoq, tinglamoq	들으시다
만들다	tayyorlamoq	만드시다
있다	bor bölmoq	계시다

[1] Ahn Jean-myung. Korean Grammar in Use: Beginning to Early Intermediate. – Seoul: Darakwon, 2010. – P. 21.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

자다	uxlamoq	주무시다
먹다	yemoq	드시다, 잡수시다
밥	ovqat	진지
생일	tuğilgan kun	생신
나이	yoş	연세
집	uy	댁

Šuningdek, koreys tili lingvistikasida hurmat sözlarni ifodalaş maqsadida işlatiladigan qöşimçalar ham mavjudki, ular quyidagilar:

1. 는/은-께서는
2. 이/가- 께서
3. 에게- 께
4. 에게서- 께
5. 이름-성함

Koreys tilida har qanday gap kimdir tomonidan aytiladi va kimgadir yöllanadi. Yöllangan gap gapirayotganlarning örtasidagi özaro munosabatlarni hisobga oladi. Bu bilan boğliq bölgan gapning subyektini uluğlash yoki kamsitiş usullaridir. Bu usul ayrim morfemalar yordamida ifodalanadi. Fe'lning özagiga (으)시 hurmat söz yasovchi qöşimçasi qöşilsa, bu fe'l subyekti hurmat kategoriyasi deb ataladi. Bu söz yasovchi qöshimcha faqatgina gapning subyekti tinglovçi yoki uçinçi şaxs bölgan holda işlatiladi, agarda gapirayotgan kishi uchun subyekt sifatida çiqsa, bu qöşimça işlatilmaydi. Subyektni hurmat kategoriyasi gapirayotgan kişi, gapning subyekt va tinglovçi örtasidagi munosabatlarga köra aniqlanadi.

Jumladan:

할아버지께서는 지금 공원에서 산책을 하십니다.

Bobom hozir boğda sayr qilyaptilar.

어머니께서는 음식을 만드시면서 텔레비전을 보십니다.

Onam ovqat tayyorlab televizor köryaptilar.

Özbek tilida hurmat kategoriyasini ifodalashda grammatik va leksik vositalar muhim örin egallaydi. Ayniqsa, ikkinchi şaxs ko'plik shaklining bir şaxsga nisbatan hurmat ma'nosida qo'llanishi özbek tiliga xos xususiyatlardan biridir. Masalan, "Ona, bu sovğani siz tayyorladingizmi?" gapida "siz" olmoşi hamda "tayyorladingizmi" fe'l şakli suhbatdoşga nisbatan hurmatni ifodalaydi. Bu holat hurmat ma'nosining grammatik vositalar orqali ifodalanişini körsatadi. Bundan tashqari, özbek tilida hurmat ma'nosini ifodalaşda -lar qo'şimçasidan ham foydalaniladi. Masalan, "Dadamlar keldilar", "Oyimlar dam olyaptilar" kabi gaplarda mazkur qöşimça köplik ma'nosidan tashqari, hurmat ma'nosini ham anglatadi. Şuningdek, "dadamlar", "akamlar", "oyimlar" kabi şakllar kundalik muloqotda yaqin kishilarga nisbatan hurmatni ifodalaş uchun qo'llanadi. Özbek tilida hurmat ma'nosi kişilarga murojaat qilişda qo'llaniladigan janob, hazrat, muhtaram, domla, ustoz, akam, opam kabi leksik birliklar, şuningdek, şaxs ismlariga qöşiladigan -xon, -oy, -begim kabi qöşimçalar orqali ham ifodalanadi. Ushbu vositalar muloqot jarayonida suhbatdoşga nisbatan hurmat, ehtirom va samimiy munosabatni namoyon etib, özbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Koreys va özbek tillarida hurmat kategoriyasi grammatik hamda leksik vositalar orqali ifodalanadi. Biroq ularning qo'llanişi va til tizimidagi örni jihatidan muayyan farqlar mavjud. Koreys tilida hurmatni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ifodalovçi maxsus grammatik qöşmçalar va alohida hurmat şakllari keng qöllanadi. Özbek tilida esa hurmat ma'nosi qöşimçalar, olmoşlar, fe'l şakllari hamda hurmat va ehtiromni bildiruvçi leksik birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki tilda hurmat kategoriyasining ifodalanişi sözlovçining nutq madaniyati, suhbatdoşga nisbatan munosabati va ehtiromini namoyon etadi. Biroq hurmatni ifodalovçi vositalarning qöllaniş xususiyatlari koreys va özbek tillarida özaro farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kim Mun Uk, A.Ismaillov va boshqalar. Hozirgi özbek adabiy tili.Toshkent. ToshDSHI. 2007.
2. Abdullayev F. Özbek milliy adabiy tili va uni örganishga oid
masalalar // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» töplami. – Toshkent, 1973.
3. Kim, Jae-Hoon. Korean Grammar in Use. – Seoul: Darakwon, 2012.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
5. Zulfiyeva Y.-lar affiksining söz tarkibidagi qöllanish xususiyatlari// Özbek va adabiyoti. –Toshkent: 1972. 5 -son.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.